

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARI SHAXSINI
SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL USUL VA O‘YINLARNING O‘RNI
VA ROLI.**

**Surxondaryo viloyati Uzun tumanidagi 19-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tosheva Shaxnoza Xolmamatovna**

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari shaxsini shakllantirishda interfaol usul va o‘yinlarning o‘rni va roli yoritilgan bo‘lib, unda boshlang‘ich sinflarda qo‘llanadigan usullar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi shaxsi, interfaol usullar, harakatli o‘yinlar, savodxonlik...





Jahon ta’lim tizimida o‘quvchi shaxsini san’at asarlari vositasida shakllantirish va rivojlantirish, umuminsoniy qadriyatlar bilan yaqindan tanishtirish, go‘zallik va yaxshilikni qadrlashda estetik did va ijodiy faollikni rag‘batlantiruvchi pedagogik texnologiyalarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, dunyoda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini estetik tarbiyalashda badiiy ijodning musiqa va tasviriy san’at turlarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish, musiqiy pedagogika va psixologiya vositasida ta’lim oluvchilarning estetik tafakkurini rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining badiiy matnlar bilan ishlashga o‘rgatish orqali estetik ongi va dunyoqarashini tarkib toptirish, bolalarning estetik sifatlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Barchamizga ma’lumki, interfaol usullardan foydalanish darsni jonli tashkil etishni ta’minlaydi. Shu bilan bir qatorda, avvalgi bilimlar va yangi axborotlar o‘rtasida bog‘lanish hosil qilib, berilgan materialni to‘la tushunishga zamin yaratadi. Interfaol usuldagi o‘quv jarayonida yakka tartibda, juft bo‘lib ishlash, guruhlarda ishlash, izlanishga asoslangan loyihalar, rolli o‘yinlar, hujjatlar bilan

ishlash, ijodiy ishlash kabi metodlardan foydalanish mumkin. Bu, ayniqsa, muayyan iqtidor sohibi bo‘lgan o‘quvchilarning qirralarini yaxshiroq ochishga uning ijodkorligini rivojlantirishga imkon beradi.

Quyida ana shunday usul va o‘yinlardan taqdim etishni joiz topdim:

Rasmlarning harakatini bildirgan so‘zlardan yozing.

Masalan: Bola uxlaydi, kuladi, ovqatlanadi, yig‘laydi.

	Nima qiladi?	Nima qiladi?	Nima qiladi?
	Nima qiladi?	Nima qiladi?	Nima qiladi?
	Nima qiladi?	Nima qiladi?	Nima qiladi?
	Nima qiladi?	Nima qiladi?	Nima qiladi?


Boshqotirma: **“Sirli dala” usuli.** Bunda mavzu bo‘yicha boshqotirma berish orqali mavzu so‘raladi.

		Z				
		I				
		L				
		O				
		L				
		S				
		U				
		V				

1. Tiniq so‘ziga ma’ndosh so‘z.(zilol)
2. Sudralib yuruvchi (ilon)
3. Tog‘ guli (lola)

4. Buyuk zot(ona)
5. El so‘ziga yaqin so‘z(xalq)
6. Navro‘z taomi(sumalak)
7. Dengiz(ummon)
8. Umr o‘lchovi(vaqt)

“Baliq skleti” usuli. Bu usulda baliqning qanotlarini to‘ldirish orqali yangi mavzu, yoki o‘tilgan mavzu mustahkamlanadi. Masalan, “Zehni o‘tkir bola” ertagi mazmunini shu ushul orqali so‘rash mumkin.



O‘yinning nomi: «**Siz ajoyibsiz**»

O‘yinning turi: Darslar oxirida o‘tkaziladi


Maqsad: Darsni yoki seminarni ijobiy-pozitiv ravishda yakunlash maqsadida ishlatish mumkin.

Vaqt: 15-20 daqiqa

Guruh kattaligi: Xohlagancha

Ishlatiladigan materiallar: Qog‘oz va ruchka

Rasmga mos harakatni ayting.



“Mening salbiy tomonlarim” o‘yini.

O‘yin qoidasi. Har bir o‘quvchiga oq qog‘oz beriladi. O‘quvchilar unga o‘z ism familiyalarini yozadilar. So‘ngra sinfdoshlari qog‘oz egasining yuziga aytolmagan kamchilik-nuqsonlarini yozib, qog‘ozni galma-galdan buklab, keying ishtirokchiga uzatadi. O‘yin qog‘oz o‘z egasiga yetib kelguniga qadar davom etadi.

O‘qituvchi: - Har biringiz o‘z varag‘ingizni oldingiz. Kamchiliklar o‘zingizga sezilmasligi mumkin. Sinfdoshlaringizning siz haqingizdagi fikrlarini bilib olib, nuqsonlaringizni bartaraf etishga harakat qiling

Xullas, maktab shaxsning barkamol kamol topishga, o‘sib kelayotgan avlodning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga, shuningdek, ularning bo‘sh vaqtdan oqilona foydalanishga yo‘naltirilgan. Chunki, maktab uzluksiz ta‘lim tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, uning asosiy vazifasi o‘quvchi yoshlarga ta‘lim va tarbiya berish bilan birga ularning maktab va sinfdan tashqari bo‘sh vaqtini sarmazmun o‘tkazish, yoshlarning ongiga milliy g‘oya va vatanparvarlik tuyg‘ularini singdirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ma‘naviyat – qalbim quyoshi. Toshkent - 2013
2. “Boshlang‘ichi ta‘lim” jurnali. 2010-yil, 3-son